

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAMADALIYEVA NILUFAR BAHODIROVNA

**TAYANCH TUSHUNCHALARNI LOYIHALAB O‘QITISH ORQALI
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ VA
FIKRLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

UO‘K:373.3.016:808.5:159.955

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna

Tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish orqali boshlang‘ich sinf
o‘quvchilarining og‘zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish..... 3

Мамадалиева Нилуфар Баходировна

Развитие устной речи и мыслительной деятельности учащихся
начальных классов путём проектирования обучения базовым понятиям 25

Mamadaliyeva Nilufar Bakhadirovna

Developing of oral speech and thinking activity of primary classes through
project-based teaching of basic concepts 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published word 51

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAMADALIYEVA NILUFAR BAHODIROVNA

**TAYANCH TUSHUNCHALARNI LOYIHALAB O‘QITISH ORQALI
BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI NUTQ VA
FIKRLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6124 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va “ZiyoNeT” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimova Ziyodaxon Ergashevna,
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich,
pedagogika fanlari doktori, professor

Usmonova Umida Aybekovna,
pedagogika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, “Taxtako‘prik” MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70; faks: e-mail: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, “Taxtako‘prik” MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____da tarqatildi.

(2025-yil “__” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

B.M. Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor.

D.T. Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d., dotsent

B.A. Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, AQShda keng qo'llanayotgan Project-Based Learning (PBL) modeli o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi¹. Finlyandiya ta'lim tizimida esa mavzulararo integratsiyalashgan yondashuv asosida o'quvchilar real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilishga o'rgatiladi, bu esa analitik va tanqidiy fikrlashning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi². Yaponiyada esa "Lesson Study" modeli orqali o'qituvchilar o'zaro hamkorlikda dars tahlili olib borib, ta'lim sifatini muntazam takomillashtirib borishadi³. Bu kabi xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, tayanch tushunchalarni loyihalash orqali o'qitish nafaqat bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarning lingvistik, analitik va ijodiy tafakkurini shakllantirishda samarali metodlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda⁴.

Dunyo ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirish bo'yicha innovatsion metodlar keng joriy etilmoqda. Xususan, Inquiry-Based Learning (IBL) (Tadqiqotga asoslangan ta'lim)⁵, Design Thinking (Dizayn fikrlash)⁶, va Flipped Classroom (Teskari sinf)⁷ yondashuvlari orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda og'zaki muloqotga faol jalb qilish orqali til kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch tushunchalar va iboralarni o'zlashtirishini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. CLIL (fan va til integratsiyasi), Scaffolding (bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash) va vizual metodlar (diagrammalar, grafik organayzerlar) kabi yondashuvlar o'quvchilarning nutqiy faolligi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, "Kahoot", "Padlet", "Quizlet" kabi interfaol platformalar tushunchalarni oson o'zlashtirish va mustahkamlashda dolzarb vositalardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar doirasida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish metodikasiga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari takomillashtirilib, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, ilg'or xorijiy tajriba asosida

¹ Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. The Autodesk Foundation.

² Sahlberg, P. (2011). Finnish Lessons: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press.

³ Fernandez, C., & Yoshida, M. (2004). Lesson Study: A Japanese Approach to Improving Mathematics Teaching and Learning. Lawrence Erlbaum Associates.

⁴ Trilling, B., & Fadel, C. (2009). 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. Jossey-Bass.

⁵ Justice, C., Rice, J., Warry, W., Inglis, S., Miller, S., & Sammon, S. (2007). Inquiry-Based Learning in Higher Education: Administrators' Perspectives on Integrating Inquiry Pedagogy into the Curriculum. *Higher Education*, 54(6), 853–864.

⁶ Razzouk, R., & Shute, V. (2012). What is design thinking and why is it important? *Review of Educational Research*, 82(3), 330–348.

⁷ Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. International Society for Technology in Education (ISTE).

ta'lim dasturlarini optimallashtirish, o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etilmoqda. Jumladan, interfaol o'yinlar, multimedia vositalari va xalq og'zaki ijodi elementlari orqali o'quvchilarning nutqini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish maqsadida maxsus seminar va treninglar tashkil etilib, zamonaviy usullar orqali o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son⁹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-51-sonli "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari¹⁰, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 157-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi "Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning davlat namunasini tasdiqlash haqida"gi 734-son qarorlari¹¹ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga doir E. G'oziyev, Sh. Mardonov¹², pedagogik texnologiya va uni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish borasida N.N. Azizxo'jayeva, J.G'. Yo'ldoshev, B. Ziyomammedov¹³, U.N. Nishonaliyev, O'.Q. Tolipov,

⁸ O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. – QHMMB, 24.09.2020. 03/20/637/1313-son.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF-73-son farmoni

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. – QHMMB, 29.01.2022. 06/22/60/0082-son.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-noyabrdagi "Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning davlat namunasini tasdiqlash haqida"gi 734-son qarori. – QHMMB, 20.11.2020. 09/20/734/1528-son.

¹² Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. –Т.: Ўқитувчи, 1994. 292-б., Sh. Mardonov. Pedagogik aksiologiya. – Т.: Fan va texnologiya, 2013-у. 184-б.

¹³ Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Т.: TDPU, 2003. – 174-б.; Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari// O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004. – 236-б.; Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – Toshkent: Lider Press, 2009. – 104-б.

Q. Olimov¹⁴, N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov¹⁵ hamda boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari, o'quv mashg'ulotlari loyihasini yaratish sohasida B. Ziyomammedov, M. Tojiyev¹⁶ kabi olimlar ilmiy izlanishlar borishgan.

Boshlang'ich ta'lim uchun yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish, o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning og'zaki nutq hamda fikrlash faoliyatini rivojlantirishga doir E. Yangibayeva, B.R. Adizov, B. Abdullayeva, N.U. Bikbayeva¹⁷, X.S. Bakiyeva, U.A. Masharipova¹⁸ va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha Y.I. Kalyagin, V.I. Mishin¹⁹, V.S. Cherkasov, A.G. Mordyukovich, A.M. Pishkalo, G.I. Saransev, I.Y. Lerner va A.V. Usovalar, boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish, mos aqliy faoliyatlarning shakllanganligi va muvofiqlashganligi masalalarida P.P. Blonskiy, G.A. Butkina, L.S. Vigotskiy²⁰, S.L. Rubenshteyn, A.N. Leontev, P.Y. Galperin, D.B. Elkonin, V.V. Davidov²¹, N.F. Talizinalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijlik olimlardan V. Blum, J. Kerrol, J. Guilford²², F. Uilyams, J. Rezvulli va S. Paypertlarning o'quvchilarning ta'lim samaradorligini oshirishga oid psixologik tadqiqotlari ham e'tiborga molikdir.

Yuqorida nomlari qayd etilgan mualliflar tomonidan o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga asos bo'ladigan pedagogik texnologiya va uning ta'lim jarayoniga tatbiqi, boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan o'quv fanlari o'quv mashg'ulotlari loyihasini yaratish, ta'lim sifatini oshirish borasida nazariy

¹⁴ Nishonaliyev U.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – T.: O'zbekiston, 2019; Олимов К.Т. Проблемы создания учебников специальных дисциплин нового поколения в сфере среднего специального и профессионального образования // Монография. – Т.: Fan, 2004. – С. 143.; Толипов У. К. Олий педагогик таълим тизимида умумхунат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед. фан. докт. ... дисс. – Т.: 2004. – 314-б.; Олимов К.Т. Проблемы создания учебников специальных дисциплин нового поколения в сфере среднего специального и профессионального образования // Монография. – Т.: Фан, 2004. – С. 143.

¹⁵ Muslimov N.A., Yo'ldoshev, J.G'. Zamonaviy dars va uning metodik ta'minoti. – T.: Fan, 2021. Sharipov Sh.S. Ixtisoslik fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini oshirish oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida // Pedagogik mahorat ilmiy nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2018. – №4. – 110-114-b.

¹⁶ Ziyomammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek milliy modeli. – Toshkent: Lider Press, 2009. – 104-b.

¹⁷ Янгабаева Е. Теория и практика обучения математики младших школьников Узбекистана. Дисс. в виде научн. докл. ... докт. пед. наук. – Т., 2002. 63-б.; Adizov B.R. Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. fan. dok. diss. –Т., 2003. 280-b.; Abdullayev B.A. Innovatsion faoliyat boshqaruvini takomillashtirish: Iqt. fan. dokt. ... diss. – Andijon: AnMII, 2002. – 151-b.; Bikbayeva N.U., Yangibayeva E. Mantiqiy tafakkurni shakllantirish yo'llari. – T.: TDPU, 2019.

¹⁸ Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим олиш орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси. П.ф.б.ф. доктори (PhD) диссертация. Тошкент –2021. Б-164.; Машарипова У.А. Инновацион таълим шароитида бошланғич синф оқувчиларининг нутқ маданиятини шакллантириш методикаси. П.ф.б.ф. доктори (PhD) диссертация. Тошкент –2018. Б-163.

¹⁹ Колягин Ю.М. Методика преподавания математики. Москва. Просвещение. 1977 г. Общая методика.; Pishkalo A.M. Boshlang'ich ta'limda muammoli o'qitish. – M.: Pedagogika, 1975.

²⁰ Выготский Л.С. Избранные психологические исследования, Т.3. – М.: Педагогика, 1983. – С. 378.

²¹ Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. Опыт теоретического и экспериментального исследования. М.: Педагогика, 1986. С. 240.

²² Блум В. П. Функции учителя в организации мыслительной деятельности учащихся. — М.: Педагогика, 1983. — С. 108; Carroll, J.B. Human Cognitive Abilities: A Survey of Factor-Analytic Studies. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993; Guilford, J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.

ahamiyatga ega bo'lgan qarashlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ayni vaqtga qadar o'quv fanlarining o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzib o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Andijon davlat pedagogika institutiining "Sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish" nomli asosiy ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish zaruratining nazariy asoslarini yoritish;

yangi o'quv materialini bayon qilish jarayonida tayanch tushunchalarning zamonaviy talqiniga asoslangan o'qitishning nazariy yondashuvlarini takomillashtirish asoslarini ishlab chiqish;

boshlang'ich sinf o'quv materiallaridagi tushunchalar mazmunining nazariy tahlili asosida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslarini takomillashtirish va tajriba-sinovdan o'tkazish, olingan natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish jarayoni belgilangan, tajriba sinov ishlariga Qarshi, Namangan, Andijon viloyatlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinfida ta'lim olayotgan 561 nafar o'quvchi jalb etilgan.

Tadqiqot predmeti. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga asos bo'ladigan loyihalab o'qitish jarayonini qo'llashning mazmuni, shakl va metodlari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda nazariy (tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, maxsus adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (pedagogik tajriba-sinov, kuzatish, so'rovnoma, test o'tkazish); matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning pedagogik mazmuni sifatida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish zaruratining nazariy-metodik asoslari tizimlashtirilib, didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan;

yangi o'quv materialini bayon qilish jarayonida tayanch tushunchalarni

loyihalab o'qitishning maqsadlari va o'qitish usullari ilmiy-nazariy asosda aniqlashtirilib, ularning bosqichma-bosqich qo'llanishi orqali og'zaki nutq va fikrlash faoliyatining rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik yondashuvlar takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf darslarida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish asosida o'quvchilarning og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik model konseptual asosda ishlab chiqilgan va mazmuni hamda tarkibiy tuzilishi ochib berilgan;

tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali o'quvchilarning og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga doir didaktik asoslar ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta'limda talabalar uchun tavsiya etilgan "Tayanch tushunchalarni o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish" nomli darslik ishlab chiqilgan;

tayanch tushunchalar asosida o'qitiladigan darslarning mazmuni, shakli va vositalarini o'z ichiga olgan pedagogik model ishlab chiqildi. Model boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun fikrlashni rivojlantiruvchi va og'zaki nutqni faollashtiruvchi o'quv faoliyatini tashkil etishning konseptual asoslarini o'zida mujassamlashtirgan;

tayanch tushunchalar asosida o'qitiladigan darslarning mazmuni, shakli va vositalarini o'z ichiga olgan pedagogik model amaliyotga joriy qilinib, uni boshlang'ich sinf darslariga tatbiq etish orqali o'quvchilarning og'zaki ifodasi va tafakkur darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan;

tajriba-sinov ishlari asosida aniqlangan natijalarga tayangan holda tayanch tushunchalarni loyihalashga asoslangan dars jarayonini tashkil etish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun takomillashtirilgan dars loyihasi namunasi, og'zaki nutqni baholash mezonlari va fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llangan yondashuvlar va metodlar, keltirilgan nazariy va amaliy tahlillarning asosliligi, eksperimental ishlarning matematik statistika usullari asosida qayta ishlangan samaradorlik ko'rsatkichlari, shuningdek, olingan xulosalar, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilishi hamda ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish zaruratining nazariy asoslarini tizimli tahlil qilish, zamonaviy talqinga asoslangan o'qitish metodikasini ishlab chiqish, pedagogik model yaratish va takomillashtirilgan didaktik tizimni tajriba-sinov asosida amaliyotga joriy etish bilan ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy qarashlar pedagogik fan uchun yangi ilmiy yondashuvlarni belgilab bersa, metodik tavsiyalar, dars loyihalari va baholash mezonlari boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'qituvchilarning nutq va tafakkurni shakllantirishga doir faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish

orqali o‘quvchilarining og‘zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning pedagogik mazmuni sifatida tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish zaruratining nazariy-metodik asoslari tizimlashtirilib, didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilganligiga oid ilmiy yangiliklaridan “Yangi kuch ma’naviy-tarbiyaviy harakatlar dasturini ishlab chiqish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2024-yil 12-dekabrda 10/212-son ma’lumotnomasi). Natijada boshlang‘ich sinf darsliklaridagi tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutq va fikrlash faoliyati takomillashtirilgan;

yangi o‘quv materialini bayon qilish jarayonida tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitishning maqsadlari va o‘qitish usullari ilmiy-nazariy asosda aniqlashtirilib, ularning bosqichma-bosqich qo‘llanishi orqali og‘zaki nutq va fikrlash faoliyatining rivojlanishini ta’minlovchi pedagogik yondashuvlar takomillashtirilganligiga oid ilmiy xulosalaridan oliy ta’lim talabalari uchun “Tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish” nomli darsligini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrda 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438-035 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada tayanch tushunchalarni rejalashtirilgan tarzda o‘qitish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqi va fikrlash salohiyatini rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatgan;

boshlang‘ich sinf darslarida tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish asosida o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan didaktik model konseptual asosda ishlab chiqilgan va mazmuni hamda tarkibiy tuzilishi ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalaridan “Ma’naviy begonalashuvning oldini olishda shaxs faolligini oshirishni ijtimoiy-pedagogik tadqiq etish” nomli ilmiy loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetida 2017-2019-yillarda bajarilgan OT-F-1-17 raqamli ilmiy-tadqiqot loyihasi). Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qitish samaradorligi o‘shirishga xizmat qilgan;

tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish orqali o‘quvchilarning og‘zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga doir didaktik asoslar ilmiy-nazariy jihatdan takomillashtirilganligiga oid ilmiy tavsiyalaridan “Elementar mantiqiy tasavvurlarni shakllantirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrda 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438-035 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada boshlang‘ich ta’limda tayanch tushunchalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nutqiy va tafakkur faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqqan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy jurnallarida, ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola: shundan 6 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va asosiy mazmuni. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, 147 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, tadqiqotning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish masalalarining psixologik va pedagogik jihatlari yoritilgan. Ushbu bobda tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini shakllantirishda mantiqiy fikrlashning o'rni ko'rsatib berilgan. Shuningdek, “tushuncha”ning mohiyati, unga berilgan turli ta'riflar, tushuncha shakllanishining bosqichlari hamda ularni ta'lim jarayonida qo'llashning ilmiy-nazariy yondashuvlari o'rganilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishga asos bo'ladigan o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirib borishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, metod va texnologiyalarini ilmiy asoslarga tayangan holda belgilab berish tendensiyasi ilgari surilgan.

Ushbu muammoning yechilishi o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog'liq bo'lib, bunda kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo'lgan.

Haqiqatan ham, o'quvchilarni bilish faoliyatini va og'zaki nutqni rivojlantirish bugungi kun talabidir. Buning uchun avvalo o'qituvchining o'zi ana shunday buyuk fazilatlariga ega bo'lishi kerak. Bu uning zimmasiga juda katta mas'uliyat yuklaydi. Demak, bugun o'qituvchi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, ta'lim-tarbiya jarayonini jahonning rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarishda faol ishtirok etishi, shu bilan birga o'quvchilarda mantiqiy fikrlash va og'zaki nutq madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda og'zaki nutqdan foydalanishning pedagogik jarayon bilan bog'liq jihatlarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda maqsadga yo'naltirilgan og'zaki nutq muhim o'rin egallaydi.

Shundan kelib chiqib, og'zaki nutqning rivojlanish tarixiga e'tibor qaratildi. Bunda til va nutqning o'rni ko'rsatib berilgan.

Insonlar nutqiy muloqotda boshqa tildan foydalanishni boshlashi bilan foydalanilmayotgan til o'lik tilga aylanadi. Dunyo qonuniyatlarini idrok etish, insonning aqliy rivojlanishi tarixiy rivojlanish jarayonida ishlab chiqilgan hamda til va yozma nutq yordamida mustahkamlab qo'yilgan bilimlarni o'zlashtirish orqali amalga oshadi. Bu mazmunda til madaniyat, fan va san'at yutuqlarini avloddan avlodga yetkazish hamda ularni mustahkamlash vositasiga aylanadi.

Turli shartlarga bog'liq bo'lgan holda insonlarning nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shunga mos ravishda nutqning har xil turlari belgilanadi. Birinchi navbatda ichki va tashqi nutq farqlanadi. Og'zaki nutq o'z navbatida monologik va dialogik nutqqa ajraladi. Tashqi nutq muloqot uchun xizmat qiladi (garchi inson ayrim hollarda hech kim bilan muloqot qilmay turib, ovoz chiqarib fikrlashi mumkin bo'lsa-da). Shuning uchun tashqi nutqning asosiy belgisi – uning boshqa odamlar tomonidan qabul qilinishidir (eshitish, ko'rish orqali qabul qilinishi). Tovushlar yoki yozma belgilar mazkur maqsadda qo'llanayotgani yoki qo'llanmayotganidan kelib chiqqan holda nutq og'zaki (odatda og'zaki suhbat nutqi) va yozma nutqqa ajratiladi.

O'qitish amaliyotida og'zaki nutqning yozma nutqdan ustun bo'lishi tamoyilini hisobga olgan holda og'zaki nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda yozma nutq ustida ham maqsadli ishlar olib borish zarurati mavjud. Chunki bu ikki nutq turining har biri o'ziga xos funksiyalarga ega bo'lib, birining rivojlanishi ikkinchisini avtomatik tarzda rivojlantirib bera olmaydi. O'qituvchi og'zaki va yozma nutqning xususiy farqlari hamda ularning uzviy aloqasini chuqur anglab yetishi, asosiysi, og'zaki nutq eshitish orqali, yozma nutq esa ko'rish orqali qabul qilinishini doimo e'tiborda tutishi lozim.

Tadqiqotda muloqotning turlicha shartlaridan kelib chiqqan holda og'zaki nutq dialogik yoki monologik nutqqa bo'linishini, dialogik nutq navbatma-navbat gapirayotgan ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashishi ekanligi, monologik nutq esa bitta shaxsning gapirishi, qolganlar esa suhbatda qatnashmagan holda uni tinglashi kerakligini taqozo etadi.

Odatda monologik nutq ma'lum bosim ostida oshiriladi. Monologik nutq yuritayotgan so'zlovchi o'z fikrlarini mantiqan ketma-ketlikda bayon etishi, ularni aniq va tushunarli shaklda ifoda etishni bilishi, shuningdek, auditoriya bilan aloqa o'rnatishni bilishi kerak. Bunga erishish uchun so'zlovchi o'z nutqining mazmuniga, uning tashqi tuzilishigagina emas, balki tinglovchilarning reaksiyasini ham kuzata olishi zarur.

Shunday qilib, nutq faoliyati tuzilmasining o'zi tafakkur va tilni faqat uzviy bog'liqlikda ko'rib chiqish kerakligining obyektiv asosi hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, maktab o'quvchilarining yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan maqsadli ishlar ularning mantiqiy fikrlash faoliyatini shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'qituvchining o'quvchilar diqqat-e'tiborini tarbiyalash bo'yicha olib boradigan ishlari qanday elementlardan (unsurlardan) iborat bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, darsning boshlanishi, o'qituvchining nutqi, ortiqcha so'zlersiz, uy vazifasini tekshirish, so'rov o'tkazish, darsning sur'ati, darsning mazmundorligi, ish turlarining xilma-xilligi va takrorlashda ko'p turli aloqalarni o'rnatish.

Bu esa o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga nazariy-metodik asos bo'ladi.

Ma'lumki o'quvchining dunyoqarashi rivojlanishida uning og'zaki nutqi va mantiqiy fikrlash faoliyati rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki berilgan topshiriqning yechilishi jarayonida o'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini fikrlash faoliyati orqali hal qilsa, og'zaki nutqi orqali bayon qiladi. O'quvchi qanchalik darajada ko'p so'z boyligiga ega bo'lsa, uning og'zaki nutqi va fikrlash faoliyati ham yuqori darajada rivojlanadi.

O'quvchilarda mantiqiy fikrlash faoliyatining barcha turlarini rivojlantirishda tayanch tushunchalarni o'qitish orqali og'zaki nutqqa tayanishni kuchaytirish uchun boshlang'ich sinf bo'yicha tizimli va maqsadga yo'naltirilgan ishlarni yuritish lozimligi tadqiqotda asosli ravishda ochib berilgan.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi uchta daraja: intuitsiya (ichki hissiyot); idrok (fikrlash); aqldan iborat bo'luvchi tuzilmaga ega. Bu nuqtayi nazarga ko'ra intuitsiya, ya'ni ichki hissiyot deb ayrim mavhum obyektlarning o'zi kabi boshqa tizimlar bilan aloqalariga nisbatining bildirilmagan bilimi tushuniladi. Idrok tushunchasi ostida mavhum obyektlar konkret tizimlarining o'zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati bildirilmagan bilimi tushuniladi. Aql esa mavhum obyektlar konkret tizimlarining o'zi kabi boshqa tizimlar va mavhum obyektlar universumi bilan aloqalariga nisbati hisobga olingan bilimdir.

Demak, mantiqiy fikrlash birinchi navbatda vositalar asosidagi bilim hisoblanadi. Inson vositalangan bilishdan quyidagi vaziyatlarda foydalanishga ehtiyoj sezadi:

analizatorlar takomillashmaganligi (masalan, analizatorlar ultratovushni qabul qilmaganda) yoki tegishli analizatorlar mavjud bo'lmaganligi (masalan, rentgen nurlarini tutib olish analizatorlari yo'q bo'lishi) tufayli bevosita bilim olish mumkin bo'lmagan holatlarda;

bevosita bilish prinsipial jihatdan mumkin, ammo ayrim konkret sharoitlarda istisnolik kasb etgan hollarda (masalan, tarix, paleontologiya, arxeologiya kabi fanlarni o'qib o'rganishda);

bevosita bilib olish mumkin, ammo noratsional, ya'ni maqsadga muvofiq bo'lmaganda.

Bizning fikrimizcha, mantiqiy fikrlash – tevarak atrofning predmet va voqeliklari o'rtasidagi munosabatlar, qonuniy aloqalarni bilib olishdir, ya'ni ularning aks etishidir. U moddiy olam qonuniyatlarini, tabiat hamda jamoatchilik-tarixiy hayotdagi sabab-oqibat aloqalarini, inson ruhiyatining qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi.

Shunday qilib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda darslikning metodik tizimining o'rni beqiyos bo'lib, yaxlit sistema sifatida ta'limning maqsadi, o'qituvchi faoliyati, o'quvchi faoliyati, ta'lim natijasi, ta'lim mazmuni, shakl, metod, vosita, texnologiya va o'quv jarayoni loyihalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotchi mantiqiy fikrlashga quyidagicha ta'rif beradi. Mantiqiy fikrlash – inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va anglanib turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli

tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushunchadir. Yoki mantiqiy fikrlash atrof-muhitni, ya'ni tevarak atrofni, olamni vositalangan va umumlashtirilgan tarzda bilish jarayoni, faqat insonga xos bo'lgan, ruhiy, murakkab bilish jarayoni hisoblanadi.

Mantiqiy fikrlash insonning ilmiy va amaliy faoliyati sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mantiqiy fikrlashning olam hamda undagi voqea-hodisalar, inson, tabiat o'rtasidagi munosabatlarning mohiyatini teran anglash va shu asosda hayotni to'g'ri tashkil etish borasidagi o'rni beqiyosdir. Mantiqiylik – tafakkurning, og'zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir. Bu jarayonda ayniyat, ziddiyat, inkorni inkor qonunlari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Ayniyat qonuni har bir narsa-hodisaning aynan o'ziga tegishlilikini, fikrda, so'zlashuv va matnlarda takror so'zlarni to'g'ri qo'llashni bildiradi. Ziddiyat qonuni bir vaqtning o'zida har bir voqea-hodisaning ziddi bo'lmasligini taqozo etadi. Inkorni inkor qonuni esa muayyan sharoitda voqea-hodisalar aynan o'sha holatda bo'lishi yoki bo'lmasligini bildiradi. Insonning nutqi, ilmiy-pedagogik, rahbarlik faoliyati mantiqiy fikrlash bilan uyg'un bo'lishi zarur. Shundagina faoliyatning barcha sohalarida mantiqiy ketma-ketlik, izchillik va muayyan samaraga erishish mumkin. Mantiqsizlik – mantiqiy fikrlashning aksidir. Mantiqiy fikrlash ma'naviy-ma'rifiy sohada ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi faoliyatni mantiq qonuniyatlari asosida tashkil etish ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning izchilligi, ta'sirchanligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, mantiqiy fikrlash motivatsiyasi, o'quvchi fikrlash dunyosining subyektiv tomoni bo'lib, u o'zining tashabbuslari va imtiyozlari, u amalga oshirayotgan mantiqiy fikrlash ehtiyojlari bilan belgilanadi. Mavzu bo'yicha o'qitish faqat qiziqish bilan asoslanishi mumkin emas, chunki o'quvchilarning qiziqishi asosan xaotik ko'rinishdagi bahs-munozara, fikr almashinish va mustaqil fikr bildirish orqali namoyon bo'ladi.


Dissertatsiyaning **“Tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari”** nomli ikkinchi bobida boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quv materiallarini bayon etishda tayanch tushunchalarning zamonaviy talqiniga asoslangan holda o'qitish metodikasi takomillashtirildi. Darsliklarda aks etgan tayanch tushunchalarning tarkibiy-mazmuniy o'rni, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligi, bosqichma-bosqich o'zlashtirilishi, shuningdek, bu tushunchalarning o'quvchilarning og'zaki ifoda va fikrlash malakalariga ta'siri atroflicha nazariy tahlil qilindi. Natijada o'qitishning konseptual yondashuvlari yangicha talqinda ko'rib chiqilib, o'quv materialining semantik tuzilishi asosida o'quvchining anglash, tahlil qilish va izchil ifoda etish qobiliyatini shakllantirish imkonini beruvchi tizimli yondashuv ishlab chiqildi.

Bunda tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish orqali og'zaki nutq va fikrlashni rivojlantirish modeli yaratildi, u o'quvchilarning bilish faoliyati, muloqot madaniyati va tafakkur jarayonlarining uyg'un rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu model doirasida nutqiy faoliyatga oid mashqlar, mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar, tushunchalararo semantik bog'liqlikni mustahkamlovchi mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsliklardagi tushunchalar mazmunining tanlanishi va ularni o'zlashtirishga yo'naltirilgan metodik

yondashuvlar ogʻzaki nutq va fikrlashni izchil shakllantirishda muhim omil sifatida qaraldi.

Shuningdek, tayanch tushunchalarning lingvistik, mantiqiy va psixologik xususiyatlariga tayangan holda ularni loyihalab oʻqitishning didaktik asoslari ishlab chiqildi. Bu asoslar oʻquvchilarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini inobatga olgan holda tayyorlandi hamda ogʻzaki nutq va fikrlash faoliyatini izchil va uzviy rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik vositalar bilan boyitildi. Natijada boshlangʻich taʼlim mazmuni doirasida oʻquvchilarda tushunchalarni anglash, tahlil qilish, bogʻlash va ularni ogʻzaki ifoda etish kompetensiyalarini shakllantirishga yoʻnaltirilgan takomillashtirilgan metodik model asosida taʼlim jarayonini tashkil etish imkoniyati yaratildi (**1-rasmga qarang**).

1-rasm



Tayanch tushunchalarni loyihalab oʻqitish orqali boshlangʻich sinf oʻquvchilarining ogʻzaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirish modeli.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarining tayanch tushunchalarini o'qitish orqali o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda o'qituvchi ta'limni tashkil etishning xususiyatlariga va zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tushunchalarni o'qitishning loyihalarini tuzib, shu asosda o'qitish orqali erisha olishi ilmiy tomondan asoslab berilgan.

Tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutqi va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda yangi kirib kelayotgan "tayanch tushunchalarga asoslangan ta'lim" metodining zaruriyati va ilmiy asoslari ochib berildi. Mazkur metod orqali o'quvchilar matn asosida tayanch so'z, tayanch jumla va tayanch iboralarni ajrata olishi, ularni izchil bog'lab, mantiqiy zanjir shaklida ifodalashi ko'zda tutiladi. Bu jarayon o'quvchilarda matnni idrok etish, fikrni tahlil qilish, sabab-oqibatni aniqlash, asosiy g'oyani anglash kabi tafakkur operatsiyalarini faollashtiradi.

Tayanch tushunchalarga asoslangan o'qitish metodining samaradorligi shundaki, u o'quvchilarni keng hajmdagi matnni qismlarga ajratib, asosiy mazmunni tushunishga va mantiqiy izchilikda bayon etishga o'rgatadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda bu metod orqali o'quvchilar "solishtirish", "taqqoslash", "umumlashtirish", "xulosa chiqarish" kabi mantiqiy fikrlashga oid ko'nikmalarni egallaydi. Mantiqiy faoliyatga oid tushunchalar esa ularning bilish jarayonini ongli, tartibli va tizimli yo'nalishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda boshlang'ich sinf darsliklaridagi tushunchalar mazmunining o'rni ham beqiyosdir.

Boshlang'ich sinf darsliklarini tahlil qilish orqali tayanch tushunchalar va topshiriqlarning o'quvchilar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi o'rniga e'tiborni qaratish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim muassasalarida tushunchalarni loyihalab o'qitishda o'qitishning maqsadi quyidagi uchta omil bilan belgilanadi:

1. O'qitishning umumta'limiy maqsadi:

o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida bilimlar tizimini berish;

o'quvchilarning og'zaki va yozma bilimlarini tarkib toptirish;

o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish.

2. O'qitishning tarbiyaviy maqsadi:

o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;

o'quvchilarda o'quv fanlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish va uni yanada rivojlantirish;

o'quvchilarda fikrlash faoliyatini rivojlantirish.

3. O'qitishning amaliy maqsadi:

tushunchalarni o'qitishda olingan nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatish;

o'quvchilarni mustaqil ravishda bilimlarni egallashga o'rgatish;

o'quvchilarda ta'lim jarayonini sistema sifatida tasavvur etishni shakllantirish.

Demak, boshlang'ich sinf darslarida o'rganiladigan har bir xulosa juda ko'p tushuncha va qonuniyatlar bilan ifodalanadi hamda u qat'iylikni talab qiladi.

O'quvchilarda mazkur tushuncha hamda qonuniyatlarni bosqichma-bosqich o'rganish jarayonida mantiqiy tafakkur qilish rivojlanishi, xulosa chiqarish faoliyati shakllanishi asoslab berilgan.

Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi – o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan bir vaqtda ularda qonuniyatlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iborat. Maktabda o'rganiladigan tushunchalar sistemasi boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim tizimida muhim bo'g'in hisoblanib, u mazmun va mohiyat jihatidan maktabgacha ta'lim jarayoni bilan ta'limning navbatdagi yuqori bosqichi bo'lgan umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni o'zaro bog'laydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda ta'lim texnologiyalariga katta urg'u berilgan. Tadqiqotda uzluksiz ta'lim tizimida qo'llanadigan turli ta'lim modellari ishlab chiqilgan va tadqiqotning amaliy jarayonlarini ochib berishda muvaffaqiyat bilan foydalanilgan, shu asosda boshlang'ich sinf darsliklari tushunchalarining loyihalari tuzib chiqilgan.

Zamonaviy maktablardagi o'qitishning ikkita asosiy yondashuvini ko'rish mumkin: an'anaviy va shaxsga yo'naltirilgan. Har bir yondashuv o'qituvchining pedagogik qarashlari va faoliyat tamoyillariga asoslangan "o'qituvchi-o'quvchilar" faoliyatidagi maxsus munosabatlar bilan tavsiflanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ta'lim muassasasida o'qitish va tarbiyalashga yondashuv o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlarida ham, ma'muriyatning o'qituvchilar bilan, sinf rahbarlarining otanalari bilan, direktorning ma'muriyat bilan va boshqalar bilan munosabatlarida ham namoyon bo'ladi, ya'ni "yondashuv" tushunchasi iyerarxik (bir butun narsa yoki hodisalar ayrim qismlari yoki elementlarining yuqoridan quyiga tomon bir tartibda joy olishi) jihatdan universaldir.

Bilim, ko'nikma va malakalarni yaxshiroq o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy yondashuvdan farqli o'laroq, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'zini o'zi anglashga qodir va faol pozitsiyani egallaydigan erkin ijodiy shaxsni rivojlantirishga qaratiladi. O'qituvchi demokratik yetakchilik uslubiga amal qiladi. Ta'lim mazmuni endi bilim va ko'nikmalar to'plami sifatida emas, balki intellektual, hissiy, aqliy rivojlanish manbai sifatida qaraladi.

Dissertatsiyaning **"Tajriba-sinov ishlarining mazmuni va samaradorligi"** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarining mazmuni, metodik tavsifi, natijalari va tahlili keltirilgan bo'lib, darslarda tayanch tushunchalarni o'qitish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlari olib borilgan.

